

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
Z.T.Aripov	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
N.O.Saidova	
Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
M.A.Abdubannobova	
O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
O.A.Ashurova	
Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
B.Latipov	
Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli.....	261
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
V.T.Jo'rayev	
Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	269
Z.M.Xursanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	274
M.A.Jalilov	
O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida.....	279
Z.X.Siddiqov	
Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar.....	283
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish.....	287
Г.П.Наркабилова	
Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику.....	291
M.Sh.Dehqonova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari.....	295
N.Q.Olimova	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish.....	299
D.T.Rustamova	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish.....	304
Y.U.Egamberdiyeva	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish.....	309
U.Y.Axmedova	
Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish.....	313
M.U.Buvajonova	
Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi.....	317
M.A.Mamasaidova, S.Sobirova	
Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli.....	321
M.A.G'ofurova	
Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	325
D.M.Gazieva	
Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331



UO'K: 361.1(075)

IJTIMOYIY FAOLLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA UNING IJTIMOYIY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI.**СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ.****THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF SOCIAL ACTIVITY AND ITS SOCIO-PEDAGOGICAL FEATURES****Tursunova Dilnavoz To'liqin qizi** 

Farg'ona davlat universiteti, maktabgacha talim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy pedagogik xususiyatlari tahlil etilgan va jamiyat kelajagi bo'lmish xotin-qizlar faolligining pedagogik tahlili yoritilgan. Maqolada O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayoniga jalb etishning ahamiyati va zaruriyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda yosh avlodni kamolga yetkazishda va oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishda ayollarning roli, shuningdek, zamonaviy qizlar tarbiyasining nazariy va amaliy mazmunini o'rganish muhimligi ta'kidlanadi.

Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmuni, psixologik xususiyatlari va tadqiqotchi olimlar tomonidan ilgari surilgan turli yondashuvlar batafsil yoritilgan. Ayniqsa, X.O. Shayxova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar orqali xotin-qizlarning zamonaviy va milliy fazilatları, ularning ijtimoiy hayotdagi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o'rni keng tahlil qilinadi.

Аннотация

В данной статье анализируется сущность понятия социального активизма и его социально-педагогические особенности, а также освещается педагогический анализ женского активизма, который является будущим общества. В статье анализируется важность и необходимость вовлечения женщин в процессы социально-политических изменений на новом этапе развития Узбекистана. В исследовании подчеркивается роль женщин в воспитании молодого поколения и правильной организации семейного воспитания, а также важность изучения теоретического и практического содержания современного воспитания девочек.

Подробно рассматривается содержание понятия социальной активности, его психологические особенности и различные подходы, предложенные исследователями. В частности, проводятся научные исследования X.O. Шайховой, в которых всесторонне анализируется роль женщин в общественной жизни, управлении обществом и государством, а также их современные и национальные качества.

Abstract

This article analyzes the essence of the concept of social activism and its social pedagogical features, and the pedagogical analysis of women's activism, which is the future of society, is highlighted. The article analyzes the importance and necessity of involving women in the processes of socio-political changes in the new stage of Uzbekistan's development. The study highlights the role of women in bringing up the younger generation and properly organizing family education, as well as the importance of studying the theoretical and practical content of modern girls' upbringing.

The content of the concept of social activity, its psychological characteristics, and various approaches proposed by researchers are examined in detail. In particular, the scientific research conducted by X.O. Shaykhova, which comprehensively analyzes the role of women in social life, the management of society and the state, as well as their modern and national qualities, is highlighted.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, oliy ta'lim, ijtimoiy majburiyat, umuminsoniy qadriyatlar, jamiyatga moslashuv, qonuniy manfaat, tashabbuskorlik.

Ключевые слова: общественная активность, высшее образование, социальная активность, общечеловеческие ценности, адаптация к обществу, законный интерес, инициатива.

Key words: social activity, higher education, social commitment, universal values, adaptation to society, legal interest, initiative.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayoniga jalb etish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. Chunki bugun jamiyatning deyarli hech bir muammoni, hatto kelajagi buyuk davlat qurish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilish mushkul. Kelajagi buyuk davlat qurish borasida biz, eng avvalo, yosh avlodga tayanamiz. Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlanadi. Oiladagi o'g'il-qizlarimizning qanday insonlar bo'lib yetishishi hammadan burun ayollarimizga bog'liq.

O'zbek etnopedagogikasi soxasida bir qancha tadqiqotlar mavjud, ammo qizlar tarbiyasi xususiyatlarini o'rganish, qiz bola shaxsini shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy mazmunini tadqiq qilish, mamlakatimizning turli hududlarining milliy-madaniy xususiyatlaridan kelib chiqib, zamonaviy qizlar tarbiyasi xususiyatlari, an'alarini o'rganish, o'zbek xalqining urf-odatlarini asosida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"ni hayotga joriy qilish dasturini modellashtirish hamda zamonaviy qizlarni shakllantirish jarayonida uni qo'llash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganish zarurati mavjud. O'zbek xalq milliy tarbiya tizimi xususiyatlari, umuminsoniy tarbiya tajribasini o'rganish va anglashning boy manbaini ochib beradi. Shu munosabat bilan yaqin vaqtlarga qadar, ilmiy pedagogik tadqiqotlar e'tiboridan chetda qolib kelayotgan o'zbek qizlari tarbiyasining tarixiy pedagogik tajribasi juda boy metodik yondashuvlarga ega.

Ijtimoiy faollik keng qamrovli kategoriya bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish deganda, ularni barcha sohalarida faol bo'lishlarini ta'minlash, bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, tashabbuskorliklarini oshirish ko'zda tutiladi.

Ijtimoiy faollik tushunchasining tarkibidagi faollikka «O'zbek tilining izohli lug'ati»da mehnatda yoki biror harakatda, jarayonda jadallik, jonbozlik ko'rsatish, ishchanlik, ta'sirchanlik sifatida tariflanadi¹³. Shunday ekan, jamiyat insonning ijtimoiy faolligini shakllantiruvchi muhit va unda ijtimoiy faolligini tarbiyalovchi tarbiya maktabi sanaladi. Yoshlarda ham faol fuqarolik tamoyillarini shakllantirish va huquqiy savodxonlikni oshirish orqali mehnatsevarlik, ishbilarmonlik va ijtimoiy munosabatlarga mas'uliyatni shakllantirish mumkin bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotchilarning fikricha, psixologiyada "faollik" inson faoliyatidagi muhim xususiyat sifatida xarakterlanadi. Shuningdek, shaxsni ijtimoiylashuvi jarayonidagi ehtiyojlari va ontogenezdada orttirilgan, tug'ma, hayotni umumjamlangan xarakteristikasi hisoblanadi.

Tadqiqotch olim N.S.Leytes fikricha, "faollik" - shaxs xususiyatlari va psixik jarayonlarni xarakterlovchi omil hisoblanadi. Boshqa bir tadqiqotch N.A.Bernshteyn tomonidan 1966-yilda "faollik prinsipi" tushunchasini kiritiladi. U "faollik"ni organizmning tiriklik faoliyatida ichki programmasining rolini belgilovchi omil deb ataydi. Y.B.Gippenreyter esa, "faollik"ning asosini motiv tashkil etishini tushuntiradi. Yana bir olim B.Ananyev fikriga ko'ra, "faollik" - insonlarni boshqarish, insonni tashqi olamga munosabatining faol - faoliyat turlari bilan birga, jangovarlik, jismoniy faoliyat, bilish, muomaladir. Bunda "faollik" faoliyatning maxsus ko'rinishi yoki maxsus faoliyatga mos keladi.

"Faollik" - insonni tashqi muhitga intensiv ta'siri va maqsadga erishishdagi to'siq(qarama-qarshilik)larni yengib o'tishidir. Bu organizm va tashqi muhit, sub'ekt va tashqi-muhit, shaxslararo va ijtimoiy muhitdagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga qaratiladi. Psixologiyada "faollik" (ingl. activity, nems. tatigkeit) faoliyat, tashqi muhit bilan hayotiy munosabatni qo'llab-quvvatlash yoki uni o'zgartirishning manbasi¹⁴ hisoblanadi. A) Tashqi faollik – bu tashqaridan va o'z ichki istak xohishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish va qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik. B) Ichki faollik – bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi"¹⁵.

O'zbek xotin-qizlarining zamonaviy va milliy fazilatlarini, ularning ijtimoiy hayotdagi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o'rni masalalari O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor X.O.Shayxova ilmiy izlanishlarida markaziy o'rinda turadi. Uning fikricha, xotin-

¹³ O'zbek tilining izohli lug'ati. / Begmatov Ye., Madvaliev A. va boshqalar.; A.Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 2-jild. –B. 409.

¹⁴ Golovin S.Yu. Slovar prakticheskogo psixologa. 1998. Minsk. XARVEST. S.14

¹⁵ Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. –T.: O'qituvchi.2000. B- 48

qizlarning tengligi va ozodligini to'la ro'yobga chiqarish, yangicha tafakkur, erkin fikrlash va dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy hayotda ayolga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirish, Sharq ayoliga xos momo meros, axloqiy go'zal qadriyat va fazilatlarni keng kamol toptirish zarurati mustaqil yurtimizda davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. O'zbek ayollarining madaniy va ma'naviy, huquqiy-axloqiy, intellektual salohiyatini oshirish, oiladagi onalik burchi va mas'uliyatini milliy, umuminsoniy nuqtai nazardan chuqur anglab yetish va amaliyotga rioya qilishga odatlantirish mustaqillik tamoyilining asosiy vazifasidir¹⁶.

NATIJALAR

Ayollarni ijtimoiy faolligini oshirish ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Ma'naviy qadriyatlarsiz jamiyat va davlatni boshqarib bo'lmaydi. X.O.Shayxova xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini keng, har tomonlama tahlil qiladi. Uning ilmiy asarlarida ayollar mehnat, oila, davlat boshqaruvi, ilm-fan, maorif va ma'rifat, axloqiy qadriyatlar, mahalla, barkamol avlodni voyaga yetkazish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, biznes va tadbirkorlik kabi rang-barang sohalar bilan bog'lab tadqiq etiladi. Uning asosiy diqqati ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini inson muammosi, uning qadri nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan. Aslida, jamiyat a'zolarining ma'rifatli bo'lishida ayniqsa, ayollarning o'rne beqiyosdir. Chunki xotin-qizlar millat tarbiyachisidir. Millat va mamlakatning ravnaqi esa ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi. Donishmand xalqimizda qizlarni parvarishlash, ularga ta'lim va tarbiya berish, oila hamda yurt sha'ni deb ardoqlash hamisha ustuvorlik kasb etgan. Ayniqsa, qizlar tarbiyasining izdan chiqishi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. O'zbek qizlarini tarbiyalashda oila hayotining, millat hayotining davomiyligini ta'minlashda bilimlar, tajribalar qizlarga o'tmas ekan, bilim, ko'nikma va malakalar ajdodlardan avlodlarga o'tkazilmas ekan, oila hayoti ham, ijtimoiy hayot ham degradatsiya(inqiroz)ga uchray boradi. Shu bois, onalarning qizlarga beradigan tarbiyalari, tajribalari oila va ijtimoiy hayotda o'z o'rnilarini topishning zaruriy ehtiyojlari talabi bo'lib kelgan hamda shunday bo'lib qoladi. Agar qizlar ilk yoshlardan boshlab, ijtimoiy faol shaxs sifatlarini egallasa, o'z navbatida komila onalar, barkamol shaxslar bo'lib yetishadilar. Shunday ekan, aslida har bir xalqning, taraqqiy etishida ijtimoiy faol sifatli qizlarning tarbiyalariga bog'liq, deb xulosa qilish mumkin.

MUHOKAMA

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi differensiatsiyalashtirilgan (tabaqalashtirilgan) qizlar tarbiyasining etnopedagogik asoslarini o'rganish natijalari muammoning turli qirralarini qayd qilish imkonini beradi. Uzoq vaqt davomida pedagogika o'zining milliy o'zaklaridan ayro tushib, neytral, nomilliy bo'lib keldi. Bu esa tarbiya jarayoni sifatiga va shu bilan bog'liq qiyinchiliklarni paydo bo'lishiga olib keldi hamda bu muammolar hozir ham o'z asoratlarini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Xulosa qilganda, talaba xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik asoslarini tadqiq etish va uning mezonlarini aniqlash ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki omillarni aniqlashga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – Xalq so'zi, 2016 yil 8 dekabr
2. Бок Г. История, история женщин, история полов. // «Женщина, мужчина, семья», 1994, №6. –С. 170–200.
3. Tursunova, D. (2021, December). THE CONCEPT OF SOCIAL ACTIVITY AND ITS IMPORTANCE IN SOCIAL DEVELOPMENT. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 84-87).

¹⁶Shayxova X. Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. –B.88.